

Bolani kim emizadi?



14:00 / 12.09.2021 2714

Yangi topilgan va chiroyli bola qasrning quvonchi va xonadonning ovunchog'iga aylandi. Qasrdagi har bir kishi bolani suyub erkalatar hamda yaxshi ko'rib, maqtar edi. Chunki malika bu bolani qattiq yaxshi ko'rardi. Shundan keyin Bani Isroillik jaji go'dakni saroy bekalari va xizmatkorlari qanday qilib suymasinlar. U yerdagi barcha bolakayni qo'lga olib, o'par edi. Chunki bolakay go'zal edi. Malika go'dak emishi uchun emizuvchi chaqirtirdi. Bolani emizish uchun unga ko'krak tutganlarida go'dak yig'lab emmadi. Malika boshqa emizuvchi olib keltirdi. Go'dak hanuz yig'lab emmas edi. Uchinchi, to'rtinchi, beshinchi marotaba yangi, yangi emizuvchilar olib kelishdi. Lekin bola yig'lab, birortasining ko'kragini og'ziga olmadi. Ajabo, go'dak nega emmayapti? Nima uchun yig'layapti? Musoni emizgani kelgan ayollar malikani xursand qilib, undan hadyalar, sarpolar olish niyatida go'dakni emizishga rosa urindilar. Lekin Alloh taolo Musoga ularning sutini harom qilgandi. Go'dakning emmayotgani butun qasrga ovoza bo'ldi va xonadonning mashg'ulotiga aylandi:

- Hoy egachi, (daryodan topilgan) yangi bolani ko'rdingizmi?
- Ha ko'rdim, juda ham do'ndiq bola ekan. Lekin u boshqa bolalarga o'xshamaydi. Hech qaysi emizuvchini emmayotgan emish.

- Uni emizamiz deb olsalar, chirqirab yig'lar va emmas emish. Bechora bola endi qanday yashaydi. U o'lib qoladiku?

Darhaqiqat, bir necha kun o'tsa ham hech bir ayolni emmadi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad